# KASBIY TA’LIM TIZIMIDA FRANSUZ TILI DARSLARIDA CHILANGARLIKKA OID SO‘ZLARNI YODLATISHNING ZAMONAVIY METODLARI

**Hamroyev Ozod Meyliyevich**
Ishtixon tumani 2-son Politexnikumi, fransuz tili fani o’qituvchisi,
E-mail: ozodmeliyevich@gmail.com

Received: 01.11.2025
Revised: 02.11.2025
Accepted: 02.11.2025
**Kalit so‘zlar:**
kasbiy ta’lim, fransuz tili, chilangarlik terminologiyasi, zamonaviy metodlar, interfaol o‘qitish, gamifikatsiya, multimedia, integrativ yondashuv.

**Annotatsiya.** Tezisda kasbiy ta’lim tizimida fransuz tili darslarini chilangarlik yo‘nalishiga moslashtirishning samarali usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy leksikani (terminlarni) yodlashning zamonaviy metodlari — interfaol, axborot-kommunikatsion, gamifikatsion va integrativ yondashuvlar asosida o‘rganish jarayoni yoritilgan. O‘quvchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun multimedia, mobil ilovalar, virtual reallik va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, chilangarlikka oid fransuzcha terminlarni o‘rgatishda amaliy integratsiya va o‘yinli yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, yodlash jarayonini tezlashtiradi.

**Keywords:**
vocational education, French language, locksmith terminology, modern methods, interactive teaching, gamification, multimedia, integrative approach.

**Abstract.** The thesis analyzes effective methods for adapting French language lessons to the field of locksmithing in the vocational education system. The study covers the process of learning professional vocabulary (terms) based on modern methods - interactive, information-communication, gamification and integrative approaches. The possibilities of using multimedia, mobile applications, virtual reality and artificial intelligence to develop students' professional communicative competence are considered. The results show that practical integration and a game approach to teaching French terms related to locksmithing increase students' motivation and accelerate the memorization process.

**Kirish.** Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimida chet tili, xususan fransuz tilini o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarda nafaqat umumiy til ko‘nikmalarini, balki kasbiy faoliyatda xorijiy tildan samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantirishdir. Texnik yo‘nalishdagi o‘quv yurtlarida chilangarlik sohasiga oid fransuzcha terminlarni o‘rganish bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Biroq an’anaviy yodlash usullari (takrorlash, tarjima, lug‘at yozish) bugungi kunda o‘quvchilarni yetarlicha qiziqtirmaydi. Shu sababli o‘qitish jarayoniga interfaol metodlar, raqamli vositalar va o‘yin elementlarini tatbiq etish zarurati zamon talabi darajasiga aylanib bormoqda.

**Asosiy qism**

**1. Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish**

Kasbiy leksikani o‘rganishda asosiy maqsad – o‘quvchilarning chilangarlik faoliyatiga oid real vaziyatlarda fransuz tilida muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayonni quyidagi usullar samarali qiladi:

Situatsion mashqlar: o‘quvchilar “usta va shogird” yoki “mijoz bilan suhbat” kabi real kasbiy vaziyatlarni fransuz tilida ifodalaydi;

Audiovizual metod: fransuz tilidagi texnik videoroliklar orqali yangi so‘zlarni kontekstda o‘rganish maqsadga muvofiqdir;

Termin kartalari: rasm va so‘z uyg‘unligi asosida xotirada mustahkamlash ko’piroq samara beradi.

**2. Axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalar**

O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish uchun quyidagi vositalar qo‘llaniladi.

Quizlet, Wordwall, Kahoot — interaktiv test va o‘yinlar orqali so‘zlarni mustahkamlash;

Mobil ilovalar (Duolingo, Memrise) — mustaqil o‘rganish imkonini yaratadi;

ChatGPT, Claude, Gemini kabi sun’iy intellekt yordamida kasbiy so‘zlar asosida muloqot simulyatsiyasi tashkil etish.

Bu texnologiyalar o‘quvchini faol o‘quv jarayoniga jalb etadi va yodlash samaradorligini oshiradi.

**3. Gamifikatsiya va integratsiyalashgan yondashuv**

Gamifikatsiya – o‘yin elementlarini dars jarayoniga kiritish – o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirada o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Texnik lug‘at poygasi” yoki “Kim topqir?” o‘yinlari orqali fransuzcha terminlar yodlanadi.

Bundan tashqari, integrativ yondashuv asosida fransuz tili darslari chilangarlik amaliy mashg‘ulotlari bilan uyg’unlashtiriladi. O‘quvchilar asboblar bilan ishlash jarayonida fransuzcha izoh beradi, masalan:

**Je serre la vis avec la clé. (Men vintni kalit bilan burayapman).** Bu usul amaliy nutqni rivojlantiradi va so‘zlarni tabiiy kontekstdagi qo‘llanish orqali yodlashni osonlashtiradi.

**Xulosa.** Kasbiy ta’lim tizimida fransuz tili darslarida chilangarlikka oid terminlarni yodlashda zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy nutq kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Shu munosabat bilan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Fransuz tili darslari kasbiy amaliyot bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi lozim; Gamifikatsiya va multimedia vositalari orqali o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi;

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar o‘qitish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.
- Natijada, chilangarlik sohasidagi o‘quvchilar fransuz tilida kasbiy muloqot yuritish va o’z fikrini erkin bayon etish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Xorijiy texnik hujjatlar bilan ishlash va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish salohiyatiga ega bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, N. (2022). Kasbiy yo‘naltirilgan xorijiy til o‘qitish metodikasi. Toshkent: TDPU.
2. Shamsiyeva, D. (2021). “Kasb-hunar ta’limida kommunikativ yondashuv asosida fransuz tilini o‘qitish.” Til va ta’lim, №3, 45–49-betlar.
3. Usmonov, B. (2020). Kasbiy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Bonnet, C. (2021). L’enseignement du français professionnel dans les établissements techniques. Paris: Hachette FLE.
5. Dumont, A. (2019). Apprentissage par tâches et vocabulaire technique en FOS. Lyon: ENS Éditions.